

## MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TALABLARI

M. S. Usmonova- Jizzax davlat pedagogika universiteti

Umumiy psixologiya kafedrasi stajyor o'qituvchisi,

Danayeva Moxira II bosqich talabasi,

Xudoyberganova Muxlisa II bosqich talabasi

[usmonovamunira1996@gmail.com](mailto:usmonovamunira1996@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, kasbga yo'naltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri ekanligi, yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar masalalari borasida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbga yo'naltirish, axloqiy salohiyat, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, fuqaro.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Farg'onaga tashrifi chog'ida Xalq ta'limi vazirligiga alohida ko'rsatmalar berdi. Prezident yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalariga alohida to'xtalib o'tib, yangi o'quv yilidan 7 sinfdan boshlab o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Prezidentning Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatovga bergan ko'rsatmasiga ko'ra 2020-2021 o'quv yilidan 7 sinfdan boshlab o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirilib, ular aynan qanday kasb egasi bo'lishi aniqlanadi. 8, 9, 10 sinfga qadar ular o'zlari tanlangan kasb-hunar bo'yicha o'qitilib boriladi. 10 sinfdan ularga ishlash huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi. 11 sinfdan esa o'quvchilar bir vaqtning o'zida korxonalar va tashkilotlarda rasmiy tarzda ishlab oylik maosh olishlari ham mumkin bo'ladi. 11 sinf bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishiga hokimlar va hududiy sektor rahbarlari javobgar hisoblanadi.

Ushbu kursatmadan kurinib turibdiki yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yo'naltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to'g'ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z

o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. O'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to'garaklar alohida o'rin egallaydi. Bunday to'garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining o'quvchilarni kasbga yo'llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, ota-onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma'muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun:

- turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;
- texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko'nikmalar yordamida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;
- o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash;
- o'quvchilarni munosib kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida, maktab o'qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish. Bunday hamkorlik natijasida o'quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan kasblar targ'ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo'ladi.

Texnologiya o'qituvchisi maktab amaliyotchi psixologi o'z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- o'quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish;
- kasblarning demografik xususiyatlari haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;
- o'quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarini rivojlantirishdagi o'rni haqida malumot berish;
- o'quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo'llash bo'yicha suhbatlar o'tkazish;
- o'quvchilarni noto'g'ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;
- o'quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va sinab ko'rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;
- o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish;

- o‘quvchilarni kasbga yo‘llash jarayoni samaradorligini ta‘minlash maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko‘rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etish;
- o‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis o‘tkazish va h.k.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi-psixologining ham olib borayotgan targ‘ibotlashviqot ishlarning o‘z ahamiyati bor. Chunki barcha o‘quvchilar ham kasb tanlashda aniq bir fikrga kela olmaydi. Buning o‘ziga yarasha turli xil sabablari bor.

Ma‘lumki, qadim Turkistonda azal-azaldan farzandlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularni ilk yoshdanoq ilm-fan va ma‘rifat sirlarini egallashiga katta e‘tibor berilgan. Bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Muhammad Zahiriddin Bobur, Furqat va boshqalar asarlarida ustoz-shogird, kasb-hunar sirlari to‘g‘risida ko‘plab materiallar keltirilgan. Hunarmandlar, ziyolilar va boshqa kasb-hunar egalarining sulolalari munosib baholangan va katta ahamiyat kasb etgan. Kasb tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati hisoblanadi. Har bir yosh avlod uchun to‘g‘ri tanlangan kasb-uning doimo sog‘lom bo‘lishi, kasb odobi va kasbiy mas‘uliyatni chin dildan his qilishi, o‘z ishidan qoniqish hosil qilishi, davlati uchun maksimal darajada foydasi tegishi bilan karakterlanadi. Shu o‘rinda 1998-2000-yillar mobaynida respublikada 315ta kasb-hunar kollejlari va litseylar qurilganligi va qayta rekonstruksiya qilinganligi hamda bu ko‘rsatkich 2018/2019-yilga kelib 1537 taga yetganligini aytib o‘tish lozim. Ulardan akademik litseylar soni 123 tani va kasb-hunar kollejlari soni - 1414 tani tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasida 2018/2019 o‘quv yili boshiga 1414 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritgan bolsa, ularda 656,3 ming nafar o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lib, 454,9 ming nafar o‘quvchi ta‘lim muassasalarini bitirdi, biroq ta‘lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimi hududlardagi iqtisodiy tarmoqlarning real ehtiyojlaridan ortda qolganligi, shuningdek, belgilangan qabul kvotalarida mehnat bozori kon‘yukturasi va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish imkoniyatlari hisobga olinmasligi bitiruvchilarni ishga joylashtirishda ko‘plab qiyinchiliklarni tug‘dirdi. Kollejlardagi mavjud o‘quv jarayonini tashkil etishning hozirgi holati, qo‘llanilayotgan o‘quv-normativ hujjatlar hamda o‘qitish muddatlari kasblarning murakkablik darajasiga javob bermasligi, ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etishdagi kamchiliklar ta‘lim sifati tushib ketishiga, bilim, malaka va ko‘nikmani amaliyotga joriy eta olmaslikka hamda kollej bitiruvchilariga ehtiyojning pasayishiga olib keldi. Natijada, umumiy, o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi rivojlanishining tahlili tizim bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtoj ekanligini ko‘rsatdi. Aynan shu sababli 2019-yil 6-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni asosida 2020-2021 o‘quv yilidan

boshlab ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi. Bunda kadrlarning mehnat bozorida to'laqonli o'rin egallashlari uchun professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish ko'zda tutilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Касбга йўналтириш Ўқув-методик кабинети // Ўқитувчилар учун китоб. – Т.: Ўқитувчи. 1989.
2. Санакулов Х., Жумаев М.Э. Касбий тайёргарликда фанлараро алоқадорлик // Халқ таълими тизимида бошланғич синф ўқитувчиларининг янги авлодини тайёрлаш муаммолари (илмий-назарий Кенгаш. маър. тўпл). – Т.: Низомий номидаги ТДПИ. 1996.
3. Касбий такомил ва фаолият самараси // Методик тавсия ва кўрсатмалар. 2-тўплам. – Жиззах. ЖДПИ. 2000.
4. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/>
5. <http s://t.me/dokument>